

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETINING
KATTAQO'RG'ON FILIALI



SHE'RIYAT POETIKASI
FANINING O'QUV DASTURI

Bilim sohasi:	200000 – San'at va gumanitar fanlar
Ta'lim sohasi:	230000- Tillar
Ta'lim yo'nalishi:	60230100–Filologiya va tillarni o'qitish: o'zbek tili

Fan/modul kodi TFT 2706		O'quv yili 2024-2025	Semestr 7, 8	ECTS – Kreditlar 7	
Fan/modul turi Tanlov fan		Ta'lim tili O'zbek		Haftadagi dars soatlari 2,5	
1.	Fan nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)		Mustaqil ta'lim (soat)	Umumiy (soat)
	SHE'RIYAT POETIKASI	106		104	210

2.

I.

Fanning mazmuni:

Fanni o'qitishning maqsadi "She'riyat poetikasi" fanining predmeti, vazifalarini yoritish, fan doirasida o'rganiladigan asosiy masalalarning mazmun-mundarijasini belgilash, she'riy asarlarning tarixiy bosqichlari, manbalari, adabiy jarayon, adabiyot taraqqiyoti, mumtoz davr adabiyoti, jadidlar adabiyoti, XX asr o'rtalari davri adabiyoti, sho'rolar davri adabiyoti, istiqbol davri adabiyoti, modernizm adabiyoti, adabiy metodlar, jahon adabiyoti namoyondalari haqida ma'lumot berishdan iborat.

"She'riyat poetikasi" fanining mohiyati, davrlari, tushunchalari fanning muammolari haqida nazariy bilimlarni egallash, innovatsiyalarni ta'lim tizimiga jalb etish, zamonaviy axborot-kommunikatsiya tizimidan foydalanish shuningdek, fanning bugungi kundagi dolzarb muammolarini belgilashdan iborat. Fan asosan maktab darsliklarni o'rganishni maqsad qilgani uchun mashg'ulotlar bazasi amaliy mashg'ulotlardan shakllantirilgan.

II. Asosiy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)

II.1. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

1-mavzu. Lirik tur va uning janrlari, o'ziga xos xususiyatlari. Jahon she'r tizimi.

Lirik tur o'zining bir qator xususiyatlariga ega. Unda his-tuyg'ular ifodasi birlamchi planga chiqadi. Jahon she'riyati sillabik tizim, metril tizim, tonik tizim kabi bir qancha turlarga ega. sillabik she'r tizimi o'zbek tili xususiyatlariga ko'proq muvofiq keladi - she'riyatimizda qadimda (mas., folklor) va hozirgi kunda barmoqning yetakchilik qilishi shu bilan izohlanadi. Sillabik she'r sistemasi polyak, serb va xorvat she'riyatlarida ham yetakchi o'rin tutadi. Shu o'rinda she'r tizimi tilning tabiatiga mos bo'lishi zarurligining yorqin misolini keltirib o'tish joiz. Rus she'riyatida polyak she'riyati ta'sirida XVIII asrgacha sillabik she'r tizimi qo'llangan. Urg'usi turg'un bo'lgan bu tizim urg'u o'rni muqim bo'lmagan rus tili tabiatiga mos emas edi, shu bois ham u rus she'riyatida uzoq yashay olmadi.

2-mavzu. She'rshunoslik asoslari.

She'riy nutqning xususiyatlari. She'rning asosiy komponentlari. Ritm, band tuzilishi. She'riy nutq muayyan bir o'lchov(vazn) asosidagi ritmga ega bo'lgan, o'zining musiqiy jarangi, hissiy to'yintirilganligi bilan farqlanuvchi nutqdir. She'riy nutqdagi o'ziga xos intonatsiya, musiqiylik ritmik bo'laklar va ritmik vositalar, o'ziga xos fonetik tashkillanish, turli sintaktik usullar yordamida vujudga keladi. She'riy yo'lda yozilgan lirik asardagi kayfiyatning hosil qilinishi, kechinmaning o'quvchiga "yuqtirilishi"da uning ritmik-intonatsion tomoni muhim ahamiyat kasb etadi. Ya'ni, she'rning ritmik-intonatsion xususiyatlari uning mazmuni bilan belgilanadi, mazmun bilan uyg'unlik kasb etadi.

3-mavzu. Qofiya tuzilishi. Qofiyaning hosil bo'lishi.

Qofiyaning banddagi o'miga ko'ra turlari. Qofiya xususiyatlari. Ritmik bo'laklar sifatida bo'g'in (hijo), turoq(ruk), misra va bandni olamiz. Mazkur tushunchalar bilan siz maktabda tanishganligingizni hisobga olib, bu o'rinda ularga qisqacha to'xtalish bilan kifoyalanamiz. Bo'g'in (hijo) bir havo zarbi bilan aytiluvchi tovush yoki tovushlar guruhi bo'lib, u barcha she'r tizimlarida eng kichik ritmik bo'lak sanaladi. O'zbek she'riyatida qo'llaniluvchi barmoq tizimi uchun bo'g'inning sifati (qisqa, cho'ziq yoki o'ta cho'ziqligi, ochiq yoki yopiqligi, urg'uli yoki urg'usizligi) ahamiyatsiz bo'lsa, aruz tizimida uning qisqa, cho'ziq va o'ta

cho'ziq navlari ajratiladi.

4-mavzu. Barmoq she'r tizimi. Barmoq tizimining asosiy xususiyatlari.

Barmoq tizimida turoq. Barmoq tizimida qofiya. Hozirgi o'zbek she'riyatining yetakchi she'r tizimi — barmoq, yuqorida aytilganidek, misralardagi bo'g'inlar sonining tengligiga asoslanadi. A.Fitrat barmoq vaznini milliy vazn deb atarkan, shunday yozadi: "Milliy vaznimizda asos so'z bo'g'imlarining sanog'idir. Bir baytning birinchi misra'i necha bo'g'im esa, ikkinchi misra'i ham shuncha bo'g'im bo'ladi. Bo'g'imlarning harf, cho'zg'i sonlariga esa ahamiyat berilmaydir", - deb yozadi

5-mavzu. Barmoq tizimida sodda va qo'shma vazn.

Barmoqda vazn tushunchasi. Sodda vazn xususiyatlari. Qo'shma vazn xususiyatlari. Barmoq she'r tizimida mutaxassislar 4 bo'g'inidan tortib 16 bo'g'inligacha bo'lgan vaznlar tarqalganini ta'kidlaydilar. Vazn har bir konkret she'rda yuzaga chiqadigan hodisa sanalib, uni metr(o'lchov) deb ham nomlanadi. Barmoqdagi o'lchov belgilanganda avvalo bo'g'inlar soni, keyin turoqlanish tartibi ko'rsatiladi.

6-mavzu. Erkin vazn va sarbast she'r.

Erkin vazn xususiyatlari. Sarbast she'rda vazn xususiyatlari. She'riy nutqning tashkillanishida ritmik bo'laklardan tashqari ritm hosil qiluvchi, ritmni kuchaytiruvchi unsurlarning ham katta badiiy-estetik ahamiyati bor. Ularni ritmik bo'laklardan farqlagan holda ritmik vositalar deb yuritamiz. Ritmik vositalar she'r ritmining ta'kidlanishi, kuchaytirilishiga xizmat qilib, ularning asosiylari sifatida ritmik pauza, qofiya va qofiyalanish sistemasini ko'rsatish mumkin.

7-mavzu. Poetik ko'chimlar.

O'xshash ko'chimlar. Qorishiq ko'chimlar. Zidlovchi ko'chimlar. She'riy nutqning tashkillanishida undagi o'ziga xos gap qurilishining juda katta xizmati borki, uning musiqiyliigi, hissiy to'yintirilganligi, ta'sirdorligi ko'p jihatdan she'riy sintaksis hisobiga ta'minlanadi. Sintaktik sathdagi normadan og'ishlar ko'proq she'riy nutqqa xos hodisa sanaladi, shu bois ham adabiyotshunoslikda "poetik sintaksis" degan maxsus tushuncha mavjud.

8-mavzu. Poetik sintaksis. Intonatsiya. Poetik figuralar.

She'r sintaksisiga xos normadan og'ishning eng keng tarqalgan ko'rinishi inversiyadir. *Inversiya* she'riy nutqda gap bo'laklari tartibining o'zgartirilishidir.

She'riy sintaksisda eng keng qo'llaniluvchi vositalardan biri takroridir. Avvalo shuni aytish kerakki, takror tilning barcha sathlariga xos hodisa bo'lib, she'riyatda uning bir qator xususiy (tovush takrori, so'z takrori, anafora, epifora, ma'no takrori, ma'noning kuchaytirilgan va susaytirilgan takrori, misra takrori, band takrori) ko'rinishlari faol qo'llaniladi. She'riy misralarda bir xil tovushlar takrori alliteratsiya deb yuritiladi. Alliteratsiyaning vokal alliteratsiya (unlilar takrori) va konsonant alliteratsiya (undoshlar takrori) turlari mavjud.

9-mavzu. Yangi o'zbek she'riyatida shakliy va uslubiy izlanishlar

XX asr o'zbek she'riyati deb yuritilgan davrning xronologik chegaralarini 1905-1990 yillar bilan belgilab olingan. Ya'ni bu o'rinda xronologik asr bilan "adabiy asr" tushunchalari bir-biriga mos kelmaydi. Garchi adabiyotimizda yangilanish kurtaklari XIX asr oxirlaridan boshlab kuzatilgan esa-da, uning chin ma'noda yangilanishi 1905 yildan keyin boshlandi. Bu fikrimiz adabiyot tarixini ijtimoiy hodisalarga bog'lab qo'yish, deb baholanishi va e'tiroz uyg'otishi mumkin. Lekin Turkistonda jadidchilikning harakat sifatida faollashuvi ham, jadidchilik g'oyalarining chinakam ommalashuvi ham ayni shu vaqtdan boshlanganini inkor qilib bo'lmaydi. Ikkinchidan, yangi o'zbek adabiyotini XIX asrning ikkinchi yarmidan yoki oxirgi choragidan belgilash ham, bizningcha, haqiqatga unchalik mos emas. To'g'ri, avvalgi asrning oxirgi choragida she'riyatimizda tematik yangilanish belgilari kuzatiladi. Lekin bu,

birinchidan, to'lig'icha mumtoz she'riyat an'analari doirasida amalga oshdi; ikkinchidan, adabiyot taraqqiyotining har qanday bir bosqichiga xos xususiyatlar quruq joyda paydo bo'lmaydi, ular o'zidan oldingi davrda kurtak holida yashaydi.

10-mavzu. 30-40-yillar she'riyatida mavzu rang-barangligi

30-40 yillar she'riyatida ham uslub, ham shakl, ham mavzu jihatdan katta ijodiy yangilanishga erishildi. Asosiy jihat mavzu va shaklga qaratilgan bo'lsada, mazmun poetikasida ham keskin o'zgarishlar yuzaga keldi. Bunda bir vaqtda mavzu va mazmun originalligi yosh shoirlar Botu, Cho'lpon, Fitrat kabi ham shoir, ham dramaturglar ijodida ayniqsa kengroq yoritila boshlandi. Vatan haqidagi she'rlar, xalq haqidagi she'rlar, erkinlik va ozodlik haqidagi she'rlar shoirlar ijodida bosh mavzu bo'ldi. Shu bilan bir qatorda yangi janrlar kirib keldi. Vazn jihatidan o'zgarishlar yuzaga keldi.

11-mavzu. 60-70-yillar she'riyatida badiiy tafakkur tadriji

60-yillar oxiri va 70-yillarga kelib davr yana o'zgarishga yuz burdi. Chunki Stalin vafotidan so'ng mamlakatda ko'z ochgan iliqlik kayfiyati sekin-asta o'z mevasini bera boshlagandi. Natijada poetik obrazning zimmasiga yuklanadigan badiiy yuk ham yangilandi. Dastlab rus adabiyotida nish urgan erkin tafakkurning kurtaklari o'zbek shoirlarining she'rlarida ham ko'rina boshladi. Shoirlar o'z e'tiborini sotsialistik qurilishlarning dabdabasidan olib, ko'ngilga qaratdilar, o'zini o'zi taftish eta boshladilar. Insonning baxti va baxtsizligi haqida o'yladi. R. Parfi, A. Oripov, E. Vohidov kabi shoirlarning she'rlaridagi eng yashovchan obrazlar (masalan, R. Parfida «Bir qushcha derazam yonida» she'ridagi qushcha obrazi) ana shu zayilda dunyoga keldi. 70-yillarning o'rtalaridan boshlab esa tag'in bir yangi avlod she'riyatida o'zgacha poetik obrazlar kezib qoldi: bu yerdagi lirik qahramonlar jamiyatni va insonni tuzatishga astoydil bel bog'lagan adolatparvar, vatanparvarlar obrazlari bo'lib maydonga chiqdilar. Bu holni Sh. Rahmon, X. Davron, U. Azim kabi shoirlarning she'rlari misolida kuzatish mumkin

12-mavzu. 80-90-yillar she'riyatidagi yangilanish jarayonlari

80-yillarda esa she'riyatda yana bir obraz paydo bo'ldi. U murosasiz chiqdi. Uning adolatparvarligi va vatanparvarligi 60-yillar avlodinikidan o'tib tushdi. Ularning urinishlari ijtimoiy dardni o'zining, shoirning dardiga aylantirgan. Cho'lponning chirpanishlarini yodga solardi. Ya'ni bu avlodda ham xuddi Cho'lpon-u Fitratda bo'lgani kabi shoirlik va fuqarolik burchlari birlashib ketdi. Natijada she'riyatda jangovar, adolatparvar, vatanparvar, elparvar qahramonning poetik obrazi dunyoga keldi. Bu narsa ma'lum ma'noda ijtimoiy publitsistikani, yalang'och g'oyaparastlikni ham yuzaga chiqardi. 90-yillarga kelib, ya'ni yurtimiz istiqbolga muyassar bo'lgandan keyin esa she'riyat zimmasidagi ayrim ijtimoiy buyurtmalardan xolos bo'lib, nazmning azaliy tamoyillariga yuz burdi. Demak, har qanday davr she'riyatini olib o'rganib chiqsak, shu narsaning shohidi bo'lamizki, uning o'ziga xos uslubi, ifoda yo'sini, ohangi, g'oyalari tagzaminida o'z davrining siyosiy-tarixiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-ruhoniylar evrilishlari yotadi. Bu evrilishlar shoir ijodida betakror poetik obrazlarda aks ettirilsagina she'rning zamonlar sinovidan o'tishiga umid qilinadi.

13-mavzu. Abdulla Oripov ijodida mumtoz adabiyot an'analari

Abdulla Oripov ijodiy kamolotida mumtoz adabiyotning o'rni alohida ahamiyatga ega. Bu adabiyotdagi boy adabiy an'alar Abdulla Oripov tomonidan o'rganildi va rivojlantirildi. Faqat an'ana doirasida qolish taqlidga olib keladi. Abdulla Oripov buni yaxshi tushunadi. A.Oripov ijodida mumtoz adabiyot janrlaridan quyidagi janrlarni kuzatamiz: g'azal, ruboiy, to'rtlik, muxammas, musaddas, musamman, masnaviy, muashshax. Yangi davr adabiyotida ruboiylar ko'proq barmoq she'r tizimida yaratilgan. Ular to'rt misradan iborat bo'lishi, qofiya tizimi, g'oyaviy mazmun jihatdan mumtoz ruboiyga mos keladi. A.Oripov mumtoz adabiyot

janrlari ichida ruboiy janrida eng ko'p she'r yaratgan. Shoir ruboiylarida falsafiylikning kuchliligi, badiiyatning yorqiligi alohida ajralib turadi.

14-mavzu. Erkin Vohidov ijodida mumtoz adabiyot an'analari

Erkin Vohidov ijodiy kamolotida mumtoz adabiyotning o'zni alohida ahamiyatga ega. Bu adabiyotdagi boy adabiy an'analari Erkin Vohidov tomonidan o'rganildi va rivojlantirildi. Shuni unutmaslik kerakki, an'ananing boyligigina shoir kamolotidagi asosiy omil bo'lmashligi mumkin. Unga yangicha yondashish, uni rivojlantirish, unga tayangan holda yangi fikr, yangicha talqin muhimdir. Faqat an'ana doirasida qolish taqlidga olib keladi. Erkin Vohidov ijodida mumtoz adabiyot janrlaridan quyidagi janrlarni kuzatamiz: g'azal, ruboiy, to'rtlik, muxammas, musaddas, musamman, masnaviy, muashshax. Bu janrlar ichida shoirlar ruboiylari haqida so'z yuritaylik. Bu janr mumtoz adabiyotda hajaz bahrining axrab va axram vaznlarida yozilgan. "Yoshlik devoni" esa shoir ijodidagi an'anaviy mumtoz janrlarning yuksak namunasidir.

15-mavzu. Istiqlol davri she'riyatining poetik xususiyatlari

Istiqlol she'riyati milliy adabiyotimizning yetakchi turidir. A. Oripov, Rauf Parfi, H. Xudoyberdiyeva, Shavkat Rahmon, Azim Suyun, Usmon Azim, Ikrom Otamurod, Abduvali Qutbiddin, Aziz Said, Iqbol Mirzo, Bahrom Ro'zimuhammad, Muhammad Yusuf, Faxriyor, Zebo Mirzo, Xosiyat Rustamova, Halima Ahmad, Rustam Musurmon singari shoirlarning she'rlarida olamni poetik idrok etish yangi bosqichga ko'tarilgani namoyon bo'ladi.

Bu davr she'riyatida o'tkir gap aytish, dono fikr bildirish, nasihat, aql o'rgatish emas, balki inson ruhining murakkab, ismsiz manzaralarini aks ettirishga e'tibor kuchaydi. Hissiyot qatlamlarini tadqiq etish, odam ruhiyatidagi boy va rangin iqlimlarni poetik kashf etishga urinish kuchaydi. Istiqlol she'riyati shakliy izlanishlarga boyligi, Chiqish nazmidan ham, Botish adabiyotidan ham samarali o'rganishga intilish kuchayganligi bilan xarakterlanadi. Endilikda she'rxonlik ko'ngilochar mashg'ulot bo'lmay qoldi. She'r bilan tillashadigan o'quvchining tafakkuri ham, qulog'i ham, ko'zi ham, hatto tuyg'ulari ham bir qadar zo'riqishi, she'r o'qiyotganda faqat zavq va lazzat tuyibgina qolmay, mehnat qilishi ham lozim bo'lib qoldi.

16-mavzu. Rauf Parfi ijodida falsafiylik

Adabiy jins turlaridan biri bo'lgan lirika insoniyat badiiy tafakkuri yaratgan mo'jizalardan biri, insonning olam va borliqqa hissiy- emotsional munosabati orqali odamlarni ezgulikka, ruhiyatni roklashga chorlovchi ma'naviy boylikdir. Insoniyatning quvvai hofizasi zo'r shoirlari ko'r asrlar davomida yaratgan she'riy durdonalar barcha avlodlarning mulki, ma'naviy ozuqasi bo'lib qoladi. Shoir ijodidagi kichikkina bir she'rda ham katta ma'no -mazmun ifodasi yotadi.

17-mavzu. Usmon Azim ijodida falsafiylik

Lirikada tuyg'u va fikr qorishiq holda namoyon bo'ladi. Agar bunday uzviy birikish bo'lmas ekan she'riy asar yo hisssiz, tuyg'usiz, yo oddiy fikrlar jamidan iborat bo'lib qoladi, insonning aqlu shuuriga ta'sir ko'rsatmaydi. Lirik xarakter fikr va hisning dialektik birligiga asoslanadi. Lirik xarakter – obraz ijodkorning voqelikka munosabati, nimadandir qoniqish hosil qilishi yoki qoniqmasligi, qandaydir voqea- hodisaga o'z xayrxohligi yoki noroziligini bildirishi, ruhitiga ta'sir qilgan kechinmalarni ifodalashi orqali lirik xarakter – obraz yaratiladi. Falsafiy utshunchalar har bir shoirning dunyo qarashidan, fikrlash tarzidan va olamga munosabatlaridan shakllanadi.

18-mavzu. Halima Xudoyberdiyeva, Halima Ahmedova ijodida ayol obrazi talqini

Adabiyotida ayol obrazining aks etishi, uning jamiyatdagi ijtimoiy mavqei u yashagan tarixiy davr bilan bevosita bog'liq bo'ladi. O'zbek adabiyotida ham ayollar obraziga murojaat qilish, ularning turfa qiyofalarini yaratish adabiyot yaralibdiki davom etib kelmoqda. Bu borada Halima Xudoyberdiyeva ijodi o'ziga xos o'rin tutadi. Shoira she'rlarida ayol qalbi, jasorati, matonatini tarannum etdi. Shuni aytish kerakki, Halima Xudoyberdiyevaning jozibasi sirtida emas, botinda, matn zahirida. Bu adabiyot namunalarini

osongina o'qilib ketilaveradigan asarlar sirasiga kirmaydi. Bu asarlar o'quvchidan muayyan hozirlikni, intellektual-ruhiy zo'riqishni talab etadi. Sharq ayollarining o'ziga xosliklari ibo-hayosi, andishasi, or-nomusi, muloyimliklarida yaqqol namoyon bo'ladi. Aynan shu jihatlari bilan o'zbek ayoli G'arb ayollaridan keskin farq qiladi. Zero o'zbek ayolining kuragining singanini, yuragidagi yo'lbarsini uyg'otmaslikka intilishi ayolning ojizaligidan emas, balki kuchliligidan, matonatli ekanligidan dalolatdir. Halima Xudoyberdiyeva, nafaqat o'zining, balki butun o'zbek ayolining ruhiy holatini ushbu misralarda ifodalab bera olgan.

19-mavzu. Hozirgi o'zbek she'riyatida xronotop poetikasi

She'riyatda xronotop tushunchasi o'zining murakkabligi bilan ajralib turadi. Undagi vaqt va makon tushunchalari bir-birini to'ldirib tursa-da, ayrim o'rinlarda bir biridan ajralgan holda namoyon bo'ladi. Lirik asar aslida shoir oniy kechinmasi, tasavvuri va ayni paytdagi holat ifodasi hisoblanadi. Shuning uchun ham badiiy vaqt borasida lirik asarlarda turli xil chalkashliklar yuzaga keladi. Makonning gorizontal va vertikal jihatlari o'zining har bir asarda badiiy funksiyasiga ega. Buni asar tahlillari orqali ko'rib chiqamiz.

20-mavzu. A.Qutbiddin va Faxriyor ijodida metafora qo'llash mahorati

She'riyatda metafora qo'llanishi ijodkor poetikasini, she'r g'oyasini ochib beradigan, u yoki bu ma'noda tushuntirib beradigan badiiy ko'rinishdir. Shuning uchun ham metafora qo'llash ko'proq she'riyatda yanada jozibador, salmoqdor ko'rinadi. Metafora badiiyatdan ilmiy o'lchamlarda tekshirila boshlandi. Natijada metafora tufayli yangi jumboq, maqol va tashbehlarning paydo bo'lishiga asos vazifani bajarishi ayon bo'ldi. Metafora turli tillarda turlicha farqlanishini kuzatishimiz mumkin. Bu ham xalqlarning madaniyati, san'ati, an'anasi bilan bog'liq hodisa sanaladi. Shuning uchun ham metafora aniqlashda, baholashda chet el madaniyatini, undagi o'ziga xos ramziy tushunchalarni bilgan holda tarjima qilish kerak bo'ladi.

21-mavzu. Muhammad Yusuf, Iqbol Mirzo ijodida xalqchilik

Ma'lumki, badiiy adabiyotning uch muhim xususiyati mavjud bo'lib, bular: milliylik, umuminsoniylik va individuallikdir. Mana shu xususiyatlar har bir chinakam badiiy yaratishlar zahirida mujassam. Badiiy ijod namunalari tadqiqida ham mana shu mezonlarga amal qilinadi va baholanadi. Xoh nasriy, xoh nazmiy asarlarni o'qimaylik, birinchi navbatda, ulardagi milliy tafakkur tarzi ko'zga tashlanadi. Adabiyotshunos olim Nurboy Jabborov milliy ruhdan mosivo tafakkurni bamisoli qanotsiz qushga qiyos etadi. Nasrda bo'lgani kabi nazmda ham milliy ruhdan to'yingan tafakkur tarzi hal qiluvchi ahamiyatga egadir. Milliylik she'riyatning asosiy tamoyilidir. Zero, shoir mansub bo'lgan millatni o'ziga millatlardan farqini namoyon etadigan bosh belgi - bu milliy ruhdir. Umri boqiy ijod namunalari ham milliy ruhning betakror badiiy talqinini aks ettirgani uchun davrlar osha barchaga birdek manzur bo'ladi.

22-mavzu. Zamonaviy lirikada tarixiy mavzular rang-barangligi

Lirik asarlar tadrijida tarixiy mavzularning ahamiyati katta. Tarixiy mavzular lirik qahramon yoki aynan tarixiy qahramonlar tilidan hikoya qilinadi. Bunda kechinma yoki tuyg'ular aynan bir maqsadga qaratiladi. X.Davron, A.Oripov, M.Yusuf she'riyatida tarixiy mavzularga bag'ishlangan ko'plab asarlar mavjud. Xurshid Davron deyarli ko'p asarlarini tarixiy mavzularga bag'ishlaydi.

23-mavzu. O'zbek she'riyatida mifologik obrazlar badiiyati

Mifologik obrazlar - xalq, og'zaki badiiy ijodiyoti, yozma adabiyot va san'at asarlaridagi mifologik negizga ega bo'lgan asotiriy personajlar. Mifologik obrazlar muayyan voqeahodisaning jonlantirilgan timsoliy ifodasi bo'lib, voqelikning mohiyatini metaforik, ramziy va istioraviy holatda o'ziga ko'chiradi va uning shakliy tajassumi hisoblanadi. Mifologik obrazlar ibtidoiy badiiy uydirma-fantaziya mahsuli bo'lib, koinot, tabiat va jamiyatdagi turli-tuman hodisalar, odam tasavvurida mavjud bo'lgan g'ayrioddiy kuchlarning kelib chiqish sabablarini izohlashga xizmat qilgan.

Badiiy tafakkur shakllangach, mifologiyannig tarkibiy qismi sanalgan asotiriy obrazlar adabiyot va san'atga ko'chgan. O'zbek mumtoz adabiyoti namoyandalarining asarlari, "Alpomish", "Kuntug'mish", "Rustamxon" hamda "Go'ro'g'li" turkumiga mansub dostonlar, o'zbek xalq afsonalari va ertaklaridagi Mifologik obrazlar shular jumlasidandir.

24-mavzu. Hozirgi o'zbek she'riyatida janrlar evolyutsiyasi

Lirik turning janrlar masalasi bo'yicha turli-tuman nazariy qarashlar mavjud. Jumaladan, I.Sulton, U.To'ychiyev, N.Shukurov, M.Ibrohimov, O.Nosirov, R.Orzibekov, H.Umurov, T.Boboyev, D.Quronov kabi adabiyotshunos olimlar lirik janrlar nazariyasiga oid o'z fikrlarini bildirishgan. Janr – adabiy asarlarning bir tur doirasidagi tarixan shakllanuvchi, o'zining nisbatan barqaror poetik strukturasiga ega tipidir. Tarixiy kateqoriya o'laroq janrlar muttasil harakatda yashaydi: yangi janrlar paydo bo'ladi, takomillashadi, istye'moldan chiqadi. Har bir alohida janrda ham mudom sifat o'zgarishlari kuzatiladi, badiiy ijod amaliyoti uning shakliy va mazmuniy xususiyatlariga muttasil o'zgarishlar kiritib boradi. Shuni nazarda tutgan holda, M.M.Baxtin fikricha, janr adabiyot taraqqiyotining har bir yangi bosqichi va shu janrga mansub har bir asarda qaytadan tug'iladi, yangilanadi

25-mavzu. Hozirgi o'zbek she'riyatida modernizm an'analari

Bugungi she'riyat ham yangi o'zgarishlar bosqichiga qadam qo'ydi. Bunda asosiy ikki yo'nalish mavjud: biri an'anaviy va yana biri modern she'riyatidir. Modern she'riyatda ikki xususiyat ko'zga tashlanadi. Biri shakl va mazmundagi yangilik, ikkinchisi an'anaviy shaklda mohiyatdagi yangilik. Eng muhimi esa, bizga notanish bo'lgan ruhning ustuvorligi. "Estetika maktabida modernizm yo'nalishlarining aynan o'xshashlarini topish qiyin. Modernizmning ko'pgina badiiy yo'nalishlari birdaniga ikki yoki undan ortiq asosga tayanadi. Va har bir badiiy yo'nalish u yoki bu darajada aniq kontseptsiyaga asoslanadi. Xuddi shu ma'noda modernizmning falsafiy-estetik qurilishi doim an'anaviy (fundament — devorlar — tom) shaklida bo'lavermay, ba'zan "tomdan" (badiiy—nazariy, estetik g'oyalardan emas) boshlanadi.

26-mavzu. Keyingi yillar she'riyatida ma'rifiy mavzular talqini

Bugungi she'riyat ham yangi o'zgarishlar bosqichiga qadam qo'ydi. Bunda asosiy ikki yo'nalish mavjud: biri an'anaviy va yana biri modern she'riyatidir. Modern she'riyatda ikki xususiyat ko'zga tashlanadi. Biri shakl va mazmundagi yangilik, ikkinchisi an'anaviy shaklda mohiyatdagi yangilik. Eng muhimi esa, bizga notanish bo'lgan ruhning ustuvorligi. "Estetika maktabida modernizm yo'nalishlarining aynan o'xshashlarini topish qiyin. Modernizmning ko'pgina badiiy yo'nalishlari birdaniga ikki yoki undan ortiq asosga tayanadi. Va har bir badiiy yo'nalish u yoki bu darajada aniq kontseptsiyaga asoslanadi. Xuddi shu ma'noda modernizmning falsafiy-estetik qurilishi doim an'anaviy (fundament — devorlar — tom) shaklida bo'lavermay, ba'zan "tomdan" (badiiy—nazariy, estetik g'oyalardan emas) boshlanadi.

III. Amaliy mashg'ulotlarga quyidagi mavzular tavsiya qilindi:

1. 30-yillar she'riyatida poetik o'zgarishlar.
2. G'azal poetikasi.
3. Ruboiy poetikasi.
4. Musammat poetikasi.
5. Cho'lpon, Mirtemir, Oybek she'riyatida yangilanish tamoyillari.
6. Cho'lponning «Go'zal» she'ri poetikasi.
7. Oybekning "O'zbekiston, "Na'matak"" she'rlari tahlili.
8. Usmon Nosir, Hamid Olimjon she'riyatida tasavvur teranligi.
9. Hamid Olimjonning "O'zbekiston" she'ri tahlili.
10. G'ofur G'ulomning "Sen etim emassan" she'ri tahlili.
11. G'ofur G'ulomning "Sog'inish" she'ri tahlili
12. Abdulla Oripov, Rauf Parfi, Erkin Vohidov ijodida yangi obrazlar masalasi.

13. Abdulla Oripovning "Nomalum odam", "Ayol", "Uchinchi odam" she'rlari tahlili
14. Erkin Vohidovning "Inson" she'ri tahlili.
15. Shavkat Rahmon, Xurshid Davron, Usmon Azim lirikasida Vatan obrazi.
16. Shavkat Rahmon she'rlari tahlili.
17. Usmon Azimning "Baxshiyona" turkumidagi she'rlari tahlili.
18. Muhammad Yusuf, Halima Xudoyberdiyeva she'riyatida xalqona ohang.
19. Muhammad Yusuf she'rlari tahlili.
20. Mustaqillik davri she'riyatida janriy izlanishlar
21. Abduvali Qutbiddin, Omon Matjon ijodida mifalogik obrazlar talqini
22. Zamonaviy o'zbek she'riyati: Jontemir, Tillaniso, Asliddin Mustafoyev, Isomiddin Po'latov ijodi misolida
23. Lirikada badiiy vaqt va badiiy makon
24. Zamonaviy she'riyatda tarixiy mavzular
25. Modernizm va o'zbek she'riyati
26. Faxriyor, Bahrom Ro'zimuhammad, Hasan Karvonli ijodida metafora qo'llash mahorati
27. She'riyatda shakliy va uslubiy izlanishlar

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil topshiriqlar

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

Mustaqil ta'limga oid bo'lim va mavzulari

1. Cho'lpon, Usmon Nosir she'riyatini tahlil qilish
2. H.Olimjon, M.Shayxzoda she'rlarini o'qish
3. Oybek, Mirtemir she'riyatida peyzaj tasvirlarini o'rganish
4. Abdulla Oripov she'riyatida falsafiylik
5. Abdulla Oripov she'riyatida ma'rifiy mavzular

6. Erkin Vohidov ijodida g'azal janri
7. Asqad Muxtor lirikasi
8. Rauf Parfi she'riyatida obrazlar tizimi
9. Rauf Parfi she'riyatida uslubiy izlanishlar
10. Shavkat Rahmon she'riyatida Vatan mavzusi
11. Usmon Azimning voqey she'rlari
12. Xurshid Davron she'riyatida tarixiy mavzular
13. Muhammad Yusuf she'riyatida xalqona ohang
14. Halima Xudoyberdiyeva, Go'zal Begim, Oydinniso she'riyatida ayol obrazi
15. Abduvali Qutbiddin she'riyatida tasavvuf
16. Faxriyor ijodi va modernizm
17. Bahrom Ro'zimuhammad, Husan Karvonli she'riyatida ramziylik

18.	Hozirgi davr yosh shoirlari ijodida mavzu rang-barangligi
19.	Samarqand adabiy muhitida yosh shoirlar ijodi tahlil
20.	Hozirgi o'zbek she'riyatida uslubiy izlanishlar
21.	She'riyatda xronotop poetikasi
22.	30-yillar adabiy tanqidchiligi
23.	60-70-yillar adabiy tanqidchiligi
24.	80-90-yillar adabiy tanqidchiligi
25.	Mustaqillik davri adabiy tanqidchiligi
26.	Modernizm she'riyati haqida adabiy tanqidchilik
27.	Hozirgi davr jahon she'riyati va o'zbek she'riyatini qiyosiy o'rganish
3.	<p>V. Fanni o'qitish natijalari (shakllangan kompetensiyalar)</p> <p>Fanni o'zlashtirish natijasida talaba: "She'riyat poetikasi" fani bo'yicha bilimlarni shakllantirish, o'zbek adabiyoti davrlari, poetik tamoyillar, adabiy siymolar, ma'anaviy-badiiy jihatdan yetuk asarlarni tahlil qilishga doir bilimlarni egallash va ularni amaliyotda tatbiq etish, bu jarayonni bevosita nazariy-poetik, adabiy-ilmiy, ma'naviy-ma'rifiy, ijtimoiy sohalaridagi amaliy ahamiyati <i>haqida tasavurga ega bo'lishi</i>;</p> <p>O'zbek she'riyati tarixi, milliy va umuminsoniy qadriyatlar, insonni ezgulik va ma'naviy barkamollikka undovchi g'oyalar hamda inson pok tuyg'u va kechinmalarni o'rganishi, o'zbek adabiyoti namunalarini adabiy-estetik hamda ilmiy-nazariy nuqtai nazardan tahlil va talqin qilish malakasini hosil qilishni <i>bilishi va ulardan foydalani olishi</i>;</p> <p>O'zbek adabiyotida shakllangan adabiy oqim va yo'nalishlarni chuqur o'rganish asosida milliy badiiy-estetik tuyg'ularni taraqqiy ettirishi, jahon xalqlari madaniy-ma'naviy hayotidagi adabiy muhit, badiiy-estetika taraqqiyotining davr va bosqichlarni <i>bilishi va ulardan foydalani olishi</i>;</p> <p>O'zbek adabiyotidagi milliy va umuminsoniy an'analarni o'rganishi, adabiy-estetik didini yuksaltirishi, o'zbek adabiyoti namunalarining individual, milliy va umuminsoniy jihatlarini ilmiy tahlil qilish, jahon xalqlari adabiyotining millat, jamiyat ravnaqidagi o'rni va ahamiyatini tushunishi, jahon adabiyoti namunalarining mazmun mohiyatini anglashi, ularni filologik tahlil va tadqiq etish malaka va <i>ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak</i>.</p>
4.	<p>VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> • ma'ruzalar; • interfaol keys-stadilar; • audio va videoma'ruzalar; • taqdimot; matn ustida ishlash.
5.	<p>VII. Kreditni olish uchun talablar:</p> <p>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'liq o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va darsdagi</p>

	faollik, mustaqil ish shakllarida berilgan vazifa topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat ishini topshirish
6.	<p>Asosiy adabiyotlar:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Qozoqboy Yo'ldosh, Muhayyo Yo'ldosh. Badiiy tahlil asoslari. - T.: Kamalak, 2016. 2. H. Umurov. Adabiyot nazariyasi. - T.: Sharq, 2002. 3. Qur'onov D. Adabiyotshunoslikka kirish. - T., 2004. 4. Mirhaydarov H., Abdurahmonov A. Badiiyat malohati. - Xo'jand, 2002. 5. Йўлдошев Қ. Йўлдошева М. Бадий тахлил асослари. - Т: Камалак, 2016. 6. Солижонов Й. Ҳозирги адабий жараён. - Т.: Innovatsiyo Ziya, 2020. <p>Qo'shimcha adabiyotlar:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. N. Shukurov va boshqalar. Adabiyotshunoslikka kirish. - T.: O'qituvchi, 1984. 2. Cho'lpon. Adabiyot nador? - T., 1994. 3. Mirhaydarov H, SMirhaydarova N Barmoq tizimi ta'limi. T.: 2010. Oybek. Adabiyot to'g'risida. - T., 1985. 4. Karimov G'. Istiqlol davri she'riyati. - T.: Zarqalam, 2005. 5. Usmon Azim. Saylanma. "Sharq" nashriyot matbaa konserni. - T.: 1995. 6. Bahrom Ro'zimuhammad. Soyalar suhbat. She'rlar to'plami. - T.: Zarqalam nashr., 2006. 7. Yashar Qosim. Yangi o'zbek lirikasida ramzlar // O'zbek tili va adabiyoti jurnali, 5/1998-y.
7.	Fan dasturi Samarqand davlat universitetining Kattaqo'rg'on filiali kengashining <u>2021</u> -yil <u>28.08</u> dagi <u>1</u> -son bayonnomasi bilan ma'qullangan.
8.	<p>Fan/modul uchun mas'ullar:</p> <p>D.R. Sayipova – SamDUKF, "O'zbek tili va gumanitar fanlar" kafedrasida o'qituvchisi.</p>
9.	<p>Taqrizchilar:</p> <p>D.G'aniyeva – SamDUKF, "O'zbek tili va gumanitar fanlar" kafedrasida o'qituvchisi (ichki) tasdiqlangan taqriz oxiridan qo'shiladi.</p> <p>I. Sulaymonov. - SamDU, Mumtoz adabiyot tarixi kafedrasida dotsenti, f.f.d. (tashqi) tasdiqlangan taqriz oxiridan qo'shiladi.</p>